



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

XOTIN-QIZLARNING ZAMONAVIY TALIM JARAYONLARIDAGI FAOLLIGINI OSHIRISH VA ULARGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR

To'rayeva Dildora Xolmuratovna

G'ijduvon tuman 2- son kasb hunar maktabi

Ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinnbosari

Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir.

ABDULLA AVLONIY

Annotatsiya

Ushbu maqolada xotin-qizlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash, hamda ilm-fan sohasiga keng imkoniyatlardan unumli foydalanish, ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni, globallashuv jarayonlariga ta'siri bilan bog'liq jarayonlar tahlilidan iborat. Shu o'rinda, O'zbekistonda xotin-qizlarni huquqlari va ularni qo'llab-quvvatlashga doir mexanizmlar, tarixiy rivojlanish jarayonlari, ularga berilayotgan imkoniyatlar va qiyayotgan masalalar hamda qator takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: talim, tadqiqot, renesans, bosqich, jurnal, zamonaviy, poydevor, "Olima ayollar grantlari", matbuot, xalqaro, amaliyot, tahlil , axborot madaniyati, axborot muhiti, elektron ta'lim resurslari, ta'lim jarayoni.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarni rivojlantirishning ustuvor vazifalari belgilab olindi. Madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ta'lim sohalarini zamon talablariga mos darajaga ko'tarish hayotiy zaruratga aylandi. Bu esa zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlash va o'quv dargohlarini davr talabiga mos ravishda jihozlashni birinchi darajali vazifalardan biriga aylantirdi.



E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27th January, 2025

Pedagogika sohasidagi eng dolzARB vazifalardan biri har tomonlama kuchli, bilimli, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashdir. Ta'lim tizimini muntazam isloh etish, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini takomillashtirish, ta'lim mazmunini boyitib borish, bugungi kunning ham dolzARB talabi bo'lib qolaveradi.

Dunyodagi zamonaviy o'quv dasturlari, o'qitish metodikalarini o'rganib, yurtimiz umumta'lim maktablarida joriy qilish, Xalq ta'limi vazirligiga ushbu tajriba asosida Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish, keying o'quv yillaridan boshlab ta'lim jarayoniga sinov tariqasida tatbiq etish vazifasi yuklatilgan. Bu borada yurtimizda bugungi kungacha bosqichma-bosqich izchil ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston xotin-qizlarining 7 nafari akademik, 280 dan ziyod fan doktori (DSc), 1480 dan ziyod falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi sohibi hisoblanadi. O'zbek olimalari kimyo, biotexnologiya, qishloq xo'jaligi kabi sohalarda, ayniqsa, faol izlanmoqda. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy va gumanitar sohalar rivojida xotin-qizlarimizning ishtiroki salmoqli o'rIN tutadi.

Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida xotin - qizlar masalasiga alohida to'xtalib, «davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeini yanada mustahkamlash – islohotlarimizning eng ustuvor yo'naliishlaridan biridir», degan edi. Shuningdek, Murojaatnomada oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga etkazish, a'lo baholarga o'qiyotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar uchun maxsus stipendiyalar joriy etish tashabbusi ilgari surilgan¹.

Ilm-fan sohasidagi o'zgarish va yangilanishlar, olimlik uchun bel bog'lagan fidoyilarga yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida so'nggi yillarda turli ilmiy darajalarga erishayotgan vakillar ko'pchilikni tashkil qilmoqda. Ular orasida xotinqizlarning salmog'i ham ortayotgani quvonarli hol. Zero, oila, farzand tarbiyasi bilan mashg'ul bo'ladigan ayollarning ilm-fan bilan ham hamnafas bo'lishi kelajak avlodlarning intellektual salohiyatli inson bo'lib tarbiyalanishi, voyaga yetishida ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bu boradagi raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2020-2021 yillarda oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini muvofiqlashtiruvchi Yagona elektron tizimda

¹ O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi. 30 dekabr 2020 yil № 275-276 (7746-7747)



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

ro‘yxatdan o‘tgan, ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jami 2 ming 456 nafar xotin-qizning 1 ming 185 nafari tayanch doktoranturada, 80 nafari doktoranturada, 964 nafari PhD mustaqil izlanuvchilikda faoliyat olib bormoqda. Qolaversa, 110 nafar ayol DSc mustaqil izlanuvchi sifatida qayd etilgan, 117 nafar xotin-qiz stajyor - tadqiqotchilikka jalb qilingan. Shu jumladan Buxoro viloyatida, fan doktori, professorlar-8 nafarni, fan nomizodlari, dotsentlar-25 nafarni PhD, dotsent-53 nafarni PhD-86 nafarni tashkil qiladi.

2019-2021 yillar mobaynida xotin-qizlarning innovatsion ishlanmalari va startap loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha murojaatlarning 13 tasini moliyalashtirish uchun Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘laridan 12 milliard 140 million so‘mdan ortiq mablag‘ ajratilgan. Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan 2020 yilda e’lon qilingan “Olma ayollar grantlari” amaliy va innovatsion loyihalar tanloviga xotin-qizlar tomonidan umumiyligi qiymati 1,7 trillion so‘m bo‘lgan jami 111 ta ilmiy loyiha taqdim etilgan. Dastlabki texnik ekspertiza natijalariga ko‘ra, 40 ta loyiha ijobiyligida berilgan hamda umumiyligi hajmi 10 milliard 450 million so‘mlik 9 ta loyiha moliyalashtirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.01.2021 yildagi PQ-4963-sonli qarorida, xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish, har bir xalq ta’limi xodimining elektron portfoliosini shakllantirish, xalq ta’limi xodimlarini ularning malaka darajasi, bilimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos keladigan tabaqaqlashgan malaka oshirish dasturlari bo‘yicha o‘qitish amaliyotini yo‘lga qo‘yish tizimlari to‘g‘risida aniq ko‘rsatmalar mavjud.

Mamlakatimizdagi ta’lim muassasalarida, oliy o‘quv yurtlarida asosan ayol mutaxassislar ishlab kelmoqda. O‘zbekiston har yili talaba qizlarni rag‘batlantirish maqsadida ularning eng iqtidorlilari Davlat mukofotlari bilan taqdirlanadila. Masalan, Zulfiya nomidagi mukofot, bu qizlarni yanada mukammal bo‘lishga undaydi ilm-fan, ta’lim, adabiyot va san’at sohalardagi qobiliyatlarining namoyon



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

bo'lishi shuningdek, oliy o'quv yurtlarida ta'lif muassasalarida o'qish uchun grantlar olish imkoniyatini beradi.

Mamlakatimizda integratsiyalashgan yondashuv tufayli yuqorinatijalarga erishib kelinyapti. Jamoat tashkilotini tashkil etish –O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi samarali qo'llab-quvvatlash mexanizmiga aylandi, ular aholining muhim qismi bo'lgan ayollarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim o'rinnutadi.

Respublikada qisqa davr ichida juda ko'p sifat o'zgarishlari sodir bo'ldiki, bular iqtisodda, ijtimoiy jarayonlarda va ayniqsa xotin-qizlarning jamiyat va oiladagi mavqeyida o'z ifodasini topdi.

O'zbekistondagi yangi siyosiy tizimda shaxs va davlatning o'zaro munosabatlariga ustuvorlik berilib, ular bir-biri bilan huquq va majburiyatlar vositasida chambarchas bog'liq. Ijtimoiy-siyosiy va huquqiy munosabatlarni mutanosiblashtirshning asosiy mexanizmi bu-demokratiya, O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan barcha aholining huquqlarini kafolatlariga qaratilgan.

Mamlakatda inson huquqlari jamiyatni demokratlashtirish muammolari ilmiy zehn, xalqning tarixan tarkib topgan an'analari, urf-odatlari, ma'naviy qadriyatlarini inobatga olgan holda hal etildi. Jamiyat fuqarolik-huquqiy davlat qurish yo'lidan borar ekan, birinchi navbatda inson manfaatlari, jamiyat va shaxs ehtiyojlariga xizmat qilish bosh masala bo'lib qolishiga e'tibor qaratildi.

Xususan, 2010-yil 30-sentabrdagi PF-4245-sonli "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" hamda 2022-2024-yillar uchun "Biznes ayollar" dasturi qabul qilinishi belgilandi. Uning ijrosiga jami 8 trillion so'm yo'naltiriladi. Ayollar uchun tadbirkorlik kurslari tashkil etiladi, imtiyozli kreditlar beriladi.

Davlatimiz rahbari ehtiyojmand xotin-qizlar bandligini ta'minlagan tadbirkorlarni ham qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidladi. Ular uchun ko'plab soliq va savdo imtiyozlari belgilandi. Bunda xotin-qizlar huquqlarining ta'minlanishi, ularning jamiyat siyosiy va madaniy qatlqidagi ishtiroki, ayollar huquqlari kamsitilishiga qarshi ko'rildigan chora-tadbirlar mustaqilligimizning ilk yillardanoq o'z samarasini ko'rsatdi.



E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27th January, 2025

Bu islohotlar so'nggi yillarda O'zbekistonda onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollarning jamiyatdagi mavqeyini oshirish, oilani mustahkamlash borasida bir qator muhim qarorlar: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagи "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoniga muvofiq, 2022/2023 o'quv yilidan boshlab respublikadagi barcha xususiy, xorijiy va davlat oliv va professional ta'lif tashkilotlarida kunduzgi ta'lim shaklida xotin-qizlarning to'lov-kontrakt asosida tahsil olishi uchun imtiyozli shartlarda ta'lim kreditlarini moliyalashtirish maqsadida tijorat banklariga Davlat budgetidan mablag' ajratishning yangi tizimi joriy etilganligi ayollarimiz uchun yana bir imkoniyatlar eshigini ochadi.

Yillar davomida olib borilgan izlanishlar turli rivojlanish amaliyotining tahlillari: xotin-qizlarning ko'pincha rivojlanish jarayonlaridan chetda qolganligi, va hatto ishtirok etgan taqdirda ham rivojlanish loyihalari natijalari erkaklar va xotin-qizlarga turlicha ta'sir ko'rsatgan degan xulosalarni keltirib chiqardi. Shu tariqa ushbu xotin-qizlarning rivojlanishda ishtirokiga yondashuvni qayta ko'rib chiqish va rivojlanish loyihalarini xotin-qizlar va bolalar ahvoliga salbiy ta'sirini yengib o'tish zaruratini vujudga keltiradi.

Rivojlantirish loyihalarining erkaklar, xotin-qizlar, o'smirlar, qariyalar va boshqalarga tabaqalashtirilgan ta'sirini o'rghanishga bag'ishlangan tadqiqotlar aholi rivojlanishining ijobiy va salbiy omillarini batafsil ko'rib chiqish, tengsizlik manbalarini aniqlash va rivojlanishdagi teng bo'lмаган tarzda ishtirok etishga olib keluvchi sabablarni bartaraf etish usullarini o'rghanish asosiy vazifa etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni kasbiy salohiyatlarini yanada rivojlantirish, jamiyatdagi barcha sohalar doirasida xotin-qizlar faolligini oshirishga doir bosqichlarni o'rghanish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni keltirishimiz mumkin:



E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27th January, 2025

- jamiyatda shakllangan “ayollarga xos kasblar” tushinchasini muomaladan chiqarish yoki uning turlarini kengaytirish, erkin kasb tanlashga imkon yaratish;
- uy vazifalari, bola tarbiyalash kasbiy faoliyatga to’siq bo’lmasligi uchun masofadan turib ishlash faoliyatini yo’lga qo’yish;
- nodavlat tashkilotlari bilan keng hamkorlikni yo’lga qo’yish orqali xotin-qizlarda ijodkorlikni rag’batlantiruvchi loyihalarni ishlab chiqish. Bu orqali o’z qobiliyatlarini yanada rivojlantirish (uy sharoitida), namoyon qilishiga imkon yaratish;
- huquqiy ta’limda xotin-qizlar savodxonligini oshirish maqsadida loyihalarni yo’lga qo’yish, siyosiy karyera, davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish, ularga mos ish o’rnlari;
- oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklar o’rtasidagi munosabatlarni kelishuv asosida amalga oshirish, erkak va ayol muammoli vaziyatlarda tenglik prinsipini o’zaro hurmat va bir-birini tushinish tarzida amalga oshirish;
- nasl, farzand tarbiyasi masalalarida tenglikka rioya qilgan holda, ayolning jamiyatdagi o’rnini topishda, kasb-hunar masalalarida qo’llab-quvvatlash;

XULOSA

Xulosa qilib aytganda buyuk Sharq allomalarining ilmiy merosidagi yoshlar ta’lim-tarbiyasiga g’oyalardan, ta’lim-tarbiya tizimi rivojlangan xalqaro mamlakatlar tajribasidan va O’zbekistonning ta’lim tizimidagi barcha o’quv fanlaridan olib borilayotgan o’quv mashg’ulotlarida o’qitishning yangi texnologiyalaridan interfaol metodlardan va multimedia vositalaridan unumli o’z o’rnida o’quvchi yoshlarga bilim berish, ta’lim-tarbiyani amalga oshirishda undan foydalanish uzlucksiz ta’lim tizimi bosqichlaridagi o’quv jarayonning sifat va samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Mamlakatimizda ziyorilar, ilm-fan fidoyilarini har tomonlama qo’llab quvvatlash, ayniqsa, xotin-qizlarning ilm-fanga bo’lgan intilishlarini rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotidagi o’rni va faolligini yanada mustahkamlash borasida amalga



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th January, 2025

oshirilayotgan sa'y-harakatlar yaqin kelajakda o'z mevasini ko'rsatishi shubhasiz. Ilm bilan hamnafas oilaning, ilm-fan bilan mashg'ul onaning, albatta, farzand kamoloti va ertasiga bo'lgan natijasini albatta ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojatnomasida ta'lim-tizimini oldiga qo'ygan dolzarb muammolarning yechimini topishga xizmat qiladi deb fikr yuritamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy gazetasi. Toshkent 25-yanvar 2020-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining Ilmiy-metodik jurnali. - Toshkent., 2016-yil, 6-son.
3. Ta'lim sifati samaradorligini oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2020-yil 28-29-aprel.
4. Rasulova Z. D. Elektron ta'lim resurslaridan foydalanib o'quv jarayonlarini takomillashtirish // "Science and Education" Scientific Journal, 2021. 449-459 b.
5. Smirnova I. N. Informatization of personalized learning in the context of digitalization of the social sphere of society and education//Questions of pedagogy. 2020. No. 9-2. pp. 239-241.
6. Problems of the effective use of irrigated land in Bukhara region and ways to improve them SNB O Khamidov, D Sh Yavmutov E3S Web of Conferences 431 (01056), EDP Sciences
7. DEVELOPMENT OF" GREEN ECONOMY" IN THE SECTORS OF THE ECONOMY AND ITS PROSPECTS SN Burxonov Academic research in educational sciences 3 (5), 1332-1337
8. Dildora, R., & Muxlisa, P. (2022). MAK TABDA ZAMONAVIY TA'LIM MUHITINI YARATISH.
9. AnadjanTadjibayevna B. Importance of Distance Education Today //Miasto Przyszlosci. –2024. –T. 46. –S. 191-194.
10. Uza.uz <https://aza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-khal-07-03-2020>.